

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10934566>

PASHTU TILIGA G‘ARBIY TILLARDAN KIRIB KELGAN TERMINLAR

Xaitov Ashurali G‘ayrat o‘g‘li

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti 2-kurs Magistratura talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola g‘arbiy tillardan pashtu tiliga kirib kelgan terminlar va ular qay yo‘sinda pashtu tiliga kirib qolgani, hozirgi kunda ushbu terminlarning keng qamrovli bo‘lib, iste‘molga aylangani va uning pashtu tilidagi ayrim fonetik o‘zgarishlari to‘g‘risida.

Kalit so‘zlar: *Afg‘oniston, inglizlar, Fransiya, Hindiston, termin, transport, madaniyat, tijorat, fan, texnika.*

Bizga ma‘lumki, har bitta tilda chetdan olingan so‘zlar , terminlar, mavjud. Ular bitta tilning so‘z boyligini oshirishga xizmat qiladi va shu tariqa til ham rivoj topadi. Hozirgi kunda ayniqsa, g‘arbiy tillardan terminlar har bir tilga jadal tarzda kirib bormoqda.

Buning asosiy sabablari esa bir qanchani tashkil qiladi. Jumladan; Fan, texnologiya, madaniyatlar almashinuvi, meditsina, transport, tijorat, internet va boshqa bir qator omillar sabab bo‘ladi hamda ular g‘arb tilidan boshqa tillarga kirib kelmoqda. Shu til qatori pashtu tili ham bundan mustasno emas.

Asosan pashtu tiliga ushbu g‘arb tillarining kirib kelishiga fan va texnologiyalar va transport terminlari sabab bo‘lgan va bo‘lmoqda. Qolaversa, siyosiy muhit ham o‘z ta‘sirini o‘tkazgan. Jumladan; Buyuk Britaniya, Rossiya, Amerika qo‘shinlarining Afg‘oniston hududdiga kirib kelishi ham pashtu tiliga ko‘pgina

termin va so'zlar kirib kelishiga sabab bo'lgan. Yana ham siyosiy jihatdan bir davlatning, ikkinchi bir davlat tomonidan bosib olinishi yoki bostirib kirishi bunga misol bo'ladi. Bunga misol tariqasida Zakariyo Mlotar o'zining „په پښتو ژبه کې د نورو ژبو وییونه او اصطلاحات“ (Pashtu tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar va terminlar) kitobida quyidagicha bu haqida ta'kidlaydi: „هغه وخت چې د فرانسې له خوا الجزائر مستعمره وگرځېد، نو د فرانسویانو له خوا لومړی ګرار د هغوی ژبه له منځه یووړل شوه، او په خای یې فرانسوي ژبه رسمي شوه. کله چې الجزائر له فرانسې نه خپلواکي بېرته ترلاسه کړه، نو د الجزائر هېواد له مصر څخه د عربي ژبې د زده کړې لپاره مصري استادان استخدام کړل، داځکه چې په الجزائر کې د عربي ژبې د تدریس لپاره استادان نه وو، چې بېرته عربي ژبه په الجزائر کې رواج کړي.“

انګرېزانو هم په خپلو ټولو مستعمرو کې همدا ډول ورته کار وکړ، یعنې د هند د نیمې وچې له نیولو څخه وروسته یې همدا ډول پالیسي پرمخ بیوله، چې تر ننه پورې انګرېزي ژبه د هند په نیمه وچه کې د رسمي ژبې په توګه کارول کېږي. څرنگه چې افغانستان د هند د نیمې وچې لپاره د یوې دروازې حیثیت درلود. د انګرېزانو کونښن داو چې د هند دساتلو لپاره افغانستان هم د خپلو مستعمرو په لیست کې داخل کړي، د همدې موخې د ترلاسه کولو لپاره یې په افغانانو باندې درې لوی ”جنگونه تحمیل کړل.“

Qachonki, Fransiya Jazoirni mustamlakaga aylantiganida, Fransiyaning birinchi ishi sekin-astalik bilan arab tilini iste'moldan yo'qotib boradi va fransuz tilini Jazoirni rasmiy tiliga aylantirdi. Jazoir Fransiya dan mustaqilligini qayta qo'lga kiritganidan so'ng, Jazoirda arab tilini qayta tiklash bo'yicha ko'pgina ishlar qilindi, lekin Jazoirda ta'limda arab tilini o'qitadigan ustozlar deyarli yo'q edi. Shuning uchun Jazoir hukumati Misr mamlakatidan arab tilini o'qitish uchun mamlakatga misrlik o'qituvchilarni olib keldi. Va shu tariqa arab tili Jazoirda yan rivoj topdi.

¹ Zakariyo Mlotar „په پښتو ژبه کې د نورو ژبو وییونه او اصطلاحات“

Shunga o'xshash inglizlar ham shunday ish qilgan. Ya'ni Hindistonni yarim quruqligini mustamlakaga qilgandan so'ng mana shunga o'xshash ishlarni Hindistonda ham qo'llagan. Hamda, siyosat rivoji ham bugungi kungacha ham Hindistonning yarmini ushbu tildan foydalanishga majbur qilmoqda. O'sha davrda qachonki, Hindistonni inglizlar mustamlaka qilganidan so'ng, Afg'oniston Hindiston uchun muhim bir darvoz nuqtasi hisoblanardi va inglizlar Hindistonni saqlab qolish uchun, hamda o'zining mustamlaka yerlarini kengaytirish maqsadida Afg'onistonni ham o'zining ro'yxatiga kiritgandi. Shu sababli Afg'onistonni egallash uchun tarixda uch marta Afg'onistonga yurish qiladi, va har uchalasida ham muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

Birinchi afg'on-ingliz urushi (1839-1842) yillarda bo'lib o'tadi. Ikkinchisi (1880) yillarda. Uchinchisi (1919) yilda bo'lib o'tadi.)

Ushbu jarayonlarda ingliz tilidan pashtu tiliga juda ko'p so'zlar kirib kelgan. Ayniqsa, harbiy terminlar, texnikalar terminlari, transport terminlarida ko'p uchraydi.

Shuningdek pashtu tiliga yangidan-yangi so'zlar va terminlar kirib kelishining asosiy sabablaridan biri ilm va texnologiyaning rivojlanishidir. 21-asrda Yevropa, Amerika va Osiyoning ba'zi bir mamlakatlarida ilm va texnologiya sohalarida izlanishlar o'zining cho'qqisiga chiqib kelmoqda, yangidan-yangi narsalar ixtiro qilinmoqda va bu narsalar nomi, terminlar, pashtu tiliga ham kirib kelmoqda.

Ushbu izlanishlarga ko'ra, agarda pashtu tiliga bu terminlarning muqobili, o'rnini bosadigan so'zlar bilan to'ldirilmasa, pashtu tili kelajagi shubha ostida qoladi.

Biz quyidagi jadval asosida ularning qanchalik ko'pligiga guvoh bo'lamiz:

Dazmol	(utu)	اوتو
Atom	(utum)	اتوم
Kvartira	(apartman)	اپارتمان
Manzil	(odris)	ادرس
Arxiv	(arshif)	ارشيف
Muzqaymoq	(ayskrim)	ايسكريم
Injener	(injiner)	انجنير
Akademiya	(akademi)	اكادمي
Albom	(album)	البوم
Alkogol	(alkul)	الكول
Elektron	(elektrun)	الكترون
Infilatsiya	(inflonzo)	انفلونزا
Onlayn	(onloyin)	انلان
Inch (o'Ichov birligi)	(inch)	انچ
Energiya	(enerji)	انرژي
Anatomiya	(anotomi)	اناتومي
Antenna	(antin)	انتن
Institut	(instut)	انستيتوت
Insulin	(insulin)	انسولين
Tez yordam	(ambulons)	امبولانس
Pushka (qurol)	(bushka)	بشكه
Batareya	(batarey)	بترى
Muvozanat (balans)	(balons)	بيلانس
Grant	(burs)	بورس
Bank	(bonk)	بانك
Velosipid	(boysikl)	بايسكل
Biologiya	(bioloji)	بيولوژي
Patnis	(patnus)	پنتوس
G'oya	(idiyo)	ايديا
Ideologiya	(idiyoloji)	ايديوولوژى
Favqulodda vaziyat	(emerjensi)	ايمرجنسي
Post	(pos)	پاس
Proteyn	(prutin)	پروتين
Plastik	(plostik)	پلاستىك
Loyiha	(pruja)	پروژه
Parking	(porking)	پاركينگ
Parlament	(porlaman)	پارلمان
Sahifa	(porograf)	پاراگراف
Jarayon	(prusa)	پروسه
Ziyofat	(porti)	پارتى
Park	(pork)	پارك
Qalam	(pensl)	پنسل
Uchuvchi	(pilut)	پيلوت
Taktika	(toktik)	تاكتيك
Taksi	(taksi)	تكسي
Jamoa	(tim)	تيم

Teatr	(tiyotr)	تئاتر
Tablo	(toblu)	تابلو
Test	(test)	تیسٹ
Shina	(toyr)	تایر
Tormoz	(tarmuz)	ترموز
Terminal	(terminal)	ترمینال
Taykvando	(taykvondo)	تکواندو
Yo'l harakati	(trofik)	ترافیک
Traktor	(troktur)	تراکتور
Pasport	(pospurt)	پاسپورٹ
Parashot	(paroshut)	پاراشوت
Reja	(plon)	پلان
Prodyuser	(produser)	پروڈوسر
Programma (dastur)	(prugram)	پروگرام
Kadr	(prsunal)	پرسونل
Nasoz	(pamp)	پمپ
Yoqilg'i	(petrul)	پٹرول
Siyosiy	(pulitikal)	پولیتیکل
Jenfer	(joket)	جاکت
Tunel	(to'nal)	تونل
Tranzit	(tronzit)	ٹرانزیت
Transport	(transport)	ٹرانسپورٹ
Tank	(tonk)	ٹانک
Tanker	(tonker)	ٹانکر
Telegram	(telegrom)	ٹلگرام
Telefon	(telfun)	ٹیلیفون
Telegramma	(telegrof)	ٹلگراف
Televizor	(telvizyun)	ٹلوویزیون
Radio	(rodyu)	رادیو
Restorant	(resturan)	رستورانٹ
Raketa	(roket)	راکت
Radar	(rodor)	رادار
Renjer	(renjer)	رنجر
Geologiya	(jialoji)	جیالوژی
Generator	(jenrotur)	جنراتور
Chek	(chek)	چک
Chapter	(chapter)	چپٹر
Haydovchi	(drevor)	درايور
Shifokor	(doktar)	ڈاکٹر
Direktor	(doriktar)	ڈائریکٹر
Diplom	(diplum)	ڈیپلوم
Demokratiya	(dimokrosi)	ڈیموکراسی
Rels	(rel)	ریل
Reksha	(reksho)	رکشا
Fakultet	(fokulta)	فیکولتہ
Fabreka	(fobrika)	فابریکہ

Federatsiya	(fedrosin)	فدراسيون
Futbol	(futbol)	فوتبال
Fayl	(foyl)	فایل
Festival	(festvol)	فستوال
Film	(felm)	فلم
Falkyor	(falklor)	فلکلور
Diabet	(diyobit)	دیابت
Jurnal	(jurnol)	ژورنال
Jurnalizm	(jurnolizm)	ژورنالیزم
Bekat (stansiya)	(steshn)	ستیشن
Spray	(spray)	سپری
Strategik	(stroteji)	ستراتیژی
Fizika	(fizik)	فزیک
Moda	(fishn)	فیشن
Falsafa	(filusuf)	فیلسوف
Kabina	(kobina)	کابینه
Kanal	(konol)	کانال
Karta	(kord)	کادر
Madaniyat	(kultur)	کلتور
Kofe	(kofı)	کافی
Sekrator	(sekrotar)	سکرتر
Samovar	(samovar)	سماوار
Semenar	(siminor)	سیمینار
Semester	(semstr)	سمستر
Standart	(standar)	ستندر
Sotsializm	(sosiolizm)	سوسیالیزم
Fan	(soyns)	ساینس
Kapsula	(kapsul)	کپسول
Klinika	(klinik)	کلینیک
Qo'mita	(komita)	کمیته
Kompyutr	(kompyutar)	کمپیوتر
Komissiya	(komisyun)	کمیسیون
Konsert	(konsert)	کنسرت
Tort	(kek)	کیک
Konferensiya	(konfrons)	کنفرانس
Nazorat	(kontrol)	کنترول
Kilometr	(kilumetr)	کیلومتر
Kimyo	(kimyo)	کیمیا
Kilogramm	(kilugrom)	کیلو گرام
Kinoteatr	(sinmo)	سینما
Slyd	(sloyd)	سلاید
Konsil	(shorjdofr)	شازدا فیر
Shampun	(shampu)	شامپو
Garaj	(garoj)	گراج
Kafolat	(garonti)	گرنٹی
Gaz	(goz)	گاز

Grammatika	(gromar)	گرامر
Manyovr	(monovr)	مانور
Mashina	(moshin)	ماشین
Bozor	(morket)	مارکیت
Metr	(metr)	متر
Usta	(moster)	ماستر
Millimeter	(mli metr)	ملي متر
Mobayl	(mobil)	موبایل
Monografiya	(monograf)	مونوگراف
Ustaxona	(varakshof)	ورکشاف
Vitamin	(vitomin)	ویتامین
Video	(vidyu)	ویديو
Virus	(virus)	ویروس
Viza	(viza)	ویزا
Gospetal	(hospetal)	هسپتال
Marshal	(morshol)	مارشال
Mikrob	(mikrub)	مکروب
Gilitsirin	(glisrin)	گلسرین
Karis	(karis)	کریس
Lobarotoriya	(labortor)	لابراتوار
Ro'yxat	(lisa)	لیست
Bakalavr	(lisons)	لیسانس
Liniya	(lin)	لین
Litr	(litr)	لیتر
Logistika	(lojustik)	لوجستیک
Neft	(naft)	نفت
Raqam	(nambar)	نمبر
Mikrarayon	(mikruyon)	مکرویان
Metodika	(metud)	میتود
Muzey	(muzim)	موزیم
Milyard	(milyord)	میلیارد
Mehmonxona	(ho'tal)	هوتل
Gektar	(hektar)	هکتار
Nektar	(nektoyi)	نیکتایی
Hamshira	(narsa)	نرسه
Vagon	(vogun)	واگون
Volebol	(volibol)	ولیبال

Ushbu jadvalda ko‘rinib turibdiki, pashtu tiliga g‘arbiy tillardan kirib kelgan terminlar, so‘zlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ushbu terminlar pashtu tilining lug‘at boyligidan o‘rin egallagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bu terminlar pashtu tiliga turli xil sohalardan o'zlashgan va qolaversa, ular kirib kelayotgan tilda qanday bo'lsa, shunday o'zlashgan. Faqat fonetik jihatidan ayrim tovush o'zgarishlariga uchragan. Misol uchun birgina transport terminlarini oladigan bo'lsak, ular pashtu tiliga ayrim o'zgarishlar bilan kirib kelgan. Masalan; ¹ستېشن (steshn) stansiya, shu jumladan stansiya so'zi ham, لکوموتیو (lokumotiv) –lokomotiv, ushbu termin pashtu tiliga ayrim tovush o'zgarishlari bilan o'zlashgan. پلاٹفورم (platfurm) platforma, bu termin ham pashtu tiliga ayrim fonetik o'zgarishlar bilan o'zlashgan. Ushbu termin g'arbiy tilda platform deb talaffuz qilinsa, pashtu tiliga platform bo'lib o'zlashgan. Shunga o'xshash ko'pgina terminlardan misol keltiramiz; مترو (metro) metro, ترمز (tarmuz) tormoz, تاکسی (taksi) taksi, تیر (toir) g'ildirak, shina, تراکتور (traktur) traktor, تانک (tonk) tank, رنجر (ranjr) renjer, درېوار (drevor) haydovchi, ماشین (moshin) mashina, harakati, lo'(trofik) y ترافیکی² ushbu termini ingliz tilida (traffic) deb talaffuz qilishsa, pashtu tiliga o'zlashgandan keyin ushbu termin deyarli o'zgarishga uchramagan, faqatgina harfda o'zgarish ko'rishimiz mumkin (trofik).

Ushbu qayd etilgan terminlar hozirda iste'moldagi terminlar hisoblanadi. Ularning soni juda ham ko'pligi boiz, biz hozircha o'zimizga kerakli bo'lgan terminlarni oldik. Biz keyingi tadqiqotlarimizda qolgan terminlarni ham topib, izlanib ularning tarkibidagi fonetik o'zgarishlar, qo'llanishi haqida bayon qilib o'tamiz.

Xulosa qilib aytganda, pashtu tiliga g'arbiy tillardan kirib kelgan terminlar juda ham ko'p. Ushbu terminlar g'arbiy tillardan o'zlashganda ayrim fonetik o'zgarishlarga

¹ Afg'oniston temir yo'llari idorasi twitter sahifasi

² Hurriyat radio Pashto twitter sahifasi 22.01.2024

uchrab, pashtu tili iste'moliga aylangan. Ularning kirib kelishi sabablari asosan ilm-fan rivojlanishi bilan bog'liq. Negaki, bizga ma'lumki, Afg'oniston o'z tarixida juda ko'plab urushlarni boshidan o'tkazgan davlat hisoblanadi. Ushbu urushlar davrida xalqning ko'pchilik qatlami savodsiz, ilm-fandan ajralib qoldi. Bevosita mamlakatda ta'lim, ilm-fan rivojlanmagandan keyin ayniqsa, tilshunoslik sohasida juda ham ko'p kamchiliklarga ega bo'lib qoladi, buni isboti o'laroq terminologiya sohasida qilinmagan ishlar tufayli, chet-tillaridan pashtu tiliga har qanday termin kirib kelsa, ushbu til to'g'ridan-to'g'ri bu terminlarni qabul qiladi va vaqti kelib bu til tanazzulga yuz tutishi mumkin. Pashtu olimlari ushbu, terminologiya, sohasida o'z ishlarini jadallashtirib, o'zlarining ushbu kirib kelgan terminlar yuzasidan muqobil ko'rinishlarini afg'on xalqiga taqdim etishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zakariyo Mlotar ,، په پښتو ژبه کې د نورو ژبو وپيونه او اصطلاحات، 2018.
2. Afg'oniston temir yo'llari idorasi twitter sahifasi
3. Hurriyat radio Pashto twitter sahifasi 22.01.2024
4. Pajhwok afghan news 29.01.2024